

**KRAN ELEKTR JIHOZLARINI EKSPLUATATSIYA
QILISH VA TA'MIRLASHNI TASHKIL ETISHDA
ENERGIYA TEJAMKORLIGIGA ERISHISH**

Maxsudov Moxirbek Tolibjonovich
(phd) dotsent ilmiy rahbar

Abdixoshimov Muslimbek Abdulboqi o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti “Elektrotexnika” fakulteti “Elektr mexanikasi” mutaxasisligi 2-bosqich magstranti.

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda kran mexanizmlarini ekspluatatsiyasini maxsus talablariga javob beradigan maqbul seriyali elektr mashinalari va jihozlar ishlab chiqarilmoqda va takomillashtirilmoqda. Kran mexanizmlari uchun maxsus tuzilishli, yuqori texnik-iqtisodiy ko'rsatgichli, zamonaviy elektrodvigatellar tavsiya etilishi maqsadga muofiqdir.

Kalit so'zlar: Kran, elektr, elektr yuritma, mexanizm, kuchlanish, yuklama, rheostat, elektrodvigatel, elektr jihoz, elektr energiya.

АННОТАЦИЯ

В настоящее время производятся и совершенствуются оптимальные серийные электрические машины и оборудование, отвечающие особым требованиям эксплуатации крановых механизмов. Для механизмов кранов желательно рекомендовать современные электродвигатели со специальной конструкцией, высокими технико - экономическими показателями.

Ключевые слова: кран, электрический, электрический привод, механизм, напряжение, нагрузка, реостат, электродвигатель, электроприбор, электрическая энергия.

ABSTRACT

Currently, optimal Series electric machines and equipment are being produced and improved, which meet the special requirements for the operation of Crane mechanisms. It is advisable to recommend modern electrodvigatels with a special structure, high maintenance and economic indicators for Crane mechanisms.

Keywords: Crane, electric, electric drive, mechanism, voltage, charge, rheostat, elektrodvigatel, electrical appliance, electric energy.

Kran elektr jihozlarini sifatli ta'mirlanishi faqat texnologik intizom yuqori darajada tashkiil etilgan maxsus korxonalardagina amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki elektr jihozlarini uzlusiz yuqori texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarda ishlashi ta'mirlashlarni qanday tashkil kilinishiga bog'liq. Bunday ta'mirlash korxonalarda mehnat unimdorligini oshirish uchun elektr jihozlari ishlab chiqariladigan zavodlardagi kabi texnologik jarayonlar qo'llaniladi.

Tajriba ko'rsatmoqdaki, markazlashtirilgan ta'mirlash tizimiga o'tish sarf xarajatlarni keskin qisqartirish, ta'mirlash sifatini yaxshilash va uni muddatlarini sezilarli qisqartirish ishlab chiqarish korxonalarda moddiy va mehnat resurslarini tejash muammolarini yechish masalalarini xal qildi.

Bunday tadbirdar har qanday muammolarni, shuningdek elektr jihozlarini almashtirish fondi sonini ham kamaytirish, hamda ta'mirlash muddatlarini qisqartirishni ham ta'minlaydi. Bunday sharoitlar maxsuslashtirilgan ta'mirlash korxonalari territorial belgilari bo'yicha joylashtirilishi talab etiladi. Iqtisodiy xududlarni birlashtirgan holda bir butun texnik siyosatni olib borish uchun ta'mirlash korxonalari va ishlab chiqaruvchi korxonalarni yagona boshqaruvga bo'ysinishi talab qilinadi.

Sanoat korxonalarida elektr energiya sarf-xarajatlarini qisqartirishda elektr jihozlarini ekspluatatsiyasi, uni saqlash, tanlash, montaj va texnik xizmat ko'rsatish ham elektr jihozlarini bikrligini ta'minlashda asosiy rolni o'ynaydi. Mutaxassislarini fikricha quvvatni va elektr jihozlardan foydalanishni optimallash ularni elektr energiya qabul qilishini 20-25 % ga tejash imkoniyatini beradi.

Ko'pchilik korxonalarda elektrosvigatellarni ishlatish amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, ko'p xolatlarda iste'molchilar dvigatellar quvvatini oshirib yoki kamaytirib yuborishmoqda, shuningdek ularni ish rejimlari va konstruktiv tuzilishini noto'g'ri tanlamoqdalar. Natijada elektr dvigatellarni muddatidan ilgari ishdan chiqish xollari, xamda ortiqcha isroflar sodir bo'lishi kuzatilmoqda

Elektr jihozlarni ishlatish ularni tayyorlangandan so'ng faoliyat ko'rsatish bo'yicha barcha fazalari yig'indisi xisoblanib, uni tarkibiga ishlatish joyiga yetkazish; vazifasi bo'yicha ishlatishga tayyorlash, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va saqlash kabilalar kiradi.

O'z vaqtida o'tkaziladigan sifatli ta'mirlash jarayonlar elektr jihozlari ekspluatatsiyasini ilmiy tashkil qilishni, ishlab chiqarish mexanizmlarini sanoatda, qishloq xo'jaligida va transportda uzlusiz ishlashini, shuningdek mamlakat xalq xo'jaligini yangi elektr mashinalariga bo'lgan extiyojini kamaytirishni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ekspluatatsiyani asosiy vazifasi-bu belgilangan xizmat muddatlarida eng yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan elektr jihozlari ishlash imkoniyatlarini ta'minlashdan iboratdir.

Bu vazifalarni bajarish uchun elektr jihozlarini rejali texnik xizmatini o'tkazish lozim, bu o'z yo'lida o'z vaqtida texnologik mashina va mexanizmlardagi shuningdek kranlardagi nosozliklar va ishdan chiqishlarni aniqlash va ularni o'z vaqtida bartaraf etishni amalga oshiradi. Bu bilan sanoat korxonalaridagi mashina va jihozlarni energiya tejamkorligiga erishishda dasturi amal bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Bozorov N.H., Saidahmedov S.S. Elektromexanik tizimlar statikasi va dinamikasi Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma.T.:«ISTIQLOL»
2. O.O.Xoshimov, S.S.Saidaxmedov. Elektr yuritma asoslari. T:«Aloqachi»,
3. Saidahmedov S. S. Elektr sxemalarini o'qish. «TDTU», -T., 2002.
4. D.D.Tojimurodov. (2022). Asinxron motorning tuzilishi ,ishlash prinsipi,ish rejimlari va uni ishga tushirish jarayonlarini tahlil qilish . ” Amerika: Journal of new century innovations”.66-74. <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1150>
5. Xodjimatov M-B.Z, M. X. (2023). Mikroprotsessorli boshqariluvchi elektr yuritmalarining afzalliklari va vazifalari. "Multidisciplinary Scientific Journal", 80-87. <https://zenodo.org/record/7539183#.ZBGD8HZByUk>